

XITOY TILIDA DEHQONCHILIKKA OID LEKSIKALAR VA ULARNING XUSUSIYATI

M.N. Shodiyeva

SamDCHTI Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

madinashodiyeva74@gmail.com

+998901953848

ANNOTATSIYA

Xitoy tilida dehqonchilikka oid leksikalarni o'rganish va tahlil qilish uchun birinchi navbatda leksikologiya va leksika tushunchasi, uning turlariga to'xtalib o'tish zarurligi hisobga olinib umumiy tilshunoslik bilan bog'liq tarzda leksika va ularning turlari ko'rib chiqildi. Hozirgacha jahon tilshunosligida xitoy tili umumiy atamashunosligidagi leksika muammolariga, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ayrim semantik va struktur belgilari, tasniflanishi masalalariga ko'p xitoy tilshunoslari o'z ilmiy tadqiqotlari orqali hissasini qo'shgan.

Kalit so'zlar: Yangtze daryosi, hunarmandchilik dastgohlari, serhosil loylar, asboblari va texnikalar, 洒水车, Song sulolasi, sug'orish texnikasi.

АННОТАЦИЯ

С целью изучения и анализа лексиконов, связанных с земледелием в китайском языке, в первую очередь лексики и их виды рассматривались в связи с общим языкознанием с учетом необходимости остановиться на понятии лексикологии и лексики, ее видов. До сих пор многие китайские лингвисты своими научными исследованиями внесли свой вклад в решение лексических проблем в общей терминологии китайского языка, их специфических особенностей, некоторых семантических и структурных признаков, вопросов классификации.

Ключевые слова: Река Янцзы, ремесла, плодородные глины, инструменты и техника, 洒水车, династия Сун, техника орошения.

ABSTRACT

In order to study and analyze the lexicons associated with agriculture in the Chinese language, first of all, lexicons and their types were considered in connection with general linguistics, taking into account the need to dwell on the concept of lexicology and vocabulary, its types. Until now, many Chinese linguists have contributed to the solution of lexical problems in the general terminology of the Chinese language, their specific features, some semantic and structural features, and classification issues with their scientific research.

Key words: *Yangtze River, handicrafts, fertile clays, tools and techniques, 泗水车, Song Dynasty, irrigation techniques.*

KIRISH

Qadimgi xitoylar Shimoliy Xitoy tekisligida yashab, Osiyoning g'arbiy sharqida joylashgan bo'lib, g'arbiy tomondan sharqqa qadar tekislik Xuanxeni (Sariq daryoni) kesib o'tgan va u juda ko'p serhosil loylarni olib ketgan. Suzib borar ekan, loy suvni to'ldirgan va daryoni uni o'zgartirishga majbur qilgan. Xuanxe suvi dalalarni bosib, qishloqlarni yuvib yuborgan. Odamlar uni "Minglab ofatlar daryosi" deb atashgan. Qadimgi xitoylar tirishqoqlik bilan, o'rmonlarni kesish, botqoqliklarni quritish, daryo qirg'oqlarini mustahkamlash orqali o'z vatanlarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishgan. Sariq daryoning janubida joylashgan Yangtze daryosi vodiysi (Moviy daryo) keyinchalik xitoylar tomonidan bosib olingan daryolar, ayniqsa, Yangtze daryosi ko'plab irmoqlari bilan qadimgi davrlarda eng muhim aloqa yo'llari bo'lib kelgan.

Dalalarda tariq, bug'doy, arpa, guruch o'stirilgan. Yil davomida ikki marta hosil yig'ib olingan: yilning birinchi yarmida tariq, ikkinchisida esa bug'doy yig'ib olingan. Yerga ishlov berilib, yovvoyi omoch, taxta ketmon, tosh o'roq bilan o'ralgan. Dastlab fermerlarning o'zlari eng oddiy qishloq xo'jaligi asbob-uskunolari, kulolchilik buyumlari va matolarni yasashgan. Vaqt o'tishi bilan hunarmandchilik ishlab chiqarishning maxsus, mustaqil sohasiga aylanadi. Birinchidan, maxsus ko'nikma va qobiliyatlarni talab qiladigan quyma hunarmandchilik ajralib turardi. Bronza g'ildirakchalari metallardan yasalgan va undan qurol va turli xil idishlar yasagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy Xalq Respublikasining hayratlanarli iqtisodiy o'sishi aynan qishloq xo'jaligidan boshlangan. Bir paytlar urushdan horib-charchab, bo'linib-sochilib yotgan Xitoy 1949-yilda hokimiyatga kelgan Mao Tszedun tomonidan birlashtirildi, yerlar boy zamindorlardan tortib olinib, 300 million dehqonga bo'lib berildi, sanoatlashish darajasi biroz o'sdi, xalqning turmush tarzida ijobiy tomonga siljish bo'ldi. Biroq 1952-yildan boshlab xalqning ustidan birin-ketin o'tkazilgan kommunistik iqtisodiy tajribalar iqtisodiy inqirozga va oxir-oqibat ommaviy ocharchilikka olib keldi. Chunki bu tajribalar xalqning joniga asrlar davomida oro kirib kelgan bozor munosabatlari elementlariga qirg'in keltirgan edi. Xususiyl mulkchilikka qarshi kurashish jarayonida oilalardan hatto kichkina tomorqalar va oddiy hunarmandchilik dastgohlari tortib olindi, xususiyl tartibda oziq-ovqat

mahsulotlari ishlab chiqarish man etildi. Turli ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda 20 milliondan 43 milliongacha inson ochlikdan nobud bo'lgan.

1979-yilda (Mao Tszedunning o'limidan so'ng) «Islohot va ochiqlik siyosati» e'lon qilindi. Xitoyni qiyin ahvoldan chiqarib olgan (va keyingi olamshumul rivojini ta'minlagan) bu siyosatning e'lon qilinishiga nima sabab bo'ldi? 1978-yilning dekabr oyi. Xitoyning Anxuy viloyatidagi Syaogang nomli qishloq. Qishloqda 21ta oila yashaydi. Boshqa qishloqlar kabi bu yerda ham ocharchilik hukm surmoqda. Shunda qishloq faollari tajriba o'tkazishadi: jamoa bo'lib ishlatilayotgan umumiy yerlarni o'sha 21 oilaga bo'lib berishga qaror qilishadi – har bir oila o'ziga birlashtirilgan yerida dehqonchilik qilishi uchun. Kichkina qishloqda o'tkazilgan mazkur kichkina islohot yaxshi natija berdi. «Demak, yerni oilalarga bo'lib berish yaxshi ekan», degan xulosaga kelindi. Bu ijobiy natija xabari Pekinga – Xitoy kommunistik partiyasi rahbarlariga yetib bordi.

Asboblardan va texnikalar – Xitoy qishloq xo'jaligi texnologiyasidagi birinchi muhim inqilobdir. Temirdan qilingan qishloq xo'jaligi asboblari Xitoy dehqonlari uchun katta kashfiyot bo'ldi. Shimoliy Henanda topilgan eng qadimgi temir shudgor – urushayotgan davlatlar davriga (miloddan avvalgi 475–221) tegishli bo'lib, yog'och pichoqlar va tutqichlarga o'rnatilgan tekis temir bo'lakdir. Chorvachilik uchun omochlar miloddan avvalgi 1-asrgacha paydo bo'lgan. Keyinchalik bir qancha takomillashuv va innovatsiyalar bo'ldi, jumladan, uch bo'lakli shudgor, shudgorlash keyinchalik takomillashtirildi. 1279-yilda Song sulolasi oxiriga kelib, Xitoy qishloq xo'jaligi muhandisligi taraqqiyotning yuqori darajasiga yetdi. Oddiy dehqonlar bu ilk o'rta asr texnikalaridan hozirgi zamonda ham foydalanishda davom etdilar. Ularning cheksiz dalalariga yog'och asbob bilan ishlov berilgan, cho'yan ulushi bo'lgan yoki bo'lmagan va odatda buqa tomonidan tortilgan. Hosilni o'roq yoki ilgak yordamida yig'ishgan (tutqich bilan o'rnatilgan ilgak uchli pichoqdan iborat kesuvchi asbob).

XIII asrga kelib, Yangsizi va Fujianning quyi mintaqasidagi tepaliklarning ko'p qismi terrasli o'tloqlarga aylantirildi. Yerdan foydalanishdagi ikkinchi inqilob XVI asrda Amerika qit'asidan makkajo'xori, shirin kartoshka, kartoshka va yeryong'oq kabi oziq-ovqat ekinlarining o'zlashtirilishi bilan boshlandi. Ular quruqroq balandliklarda, guruch va boshqa mahalliy don ekinlari uchun juda yengil qumli tuproqlarda yetishtirilgan.

Qishloq xo'jaligi va dehqonchilikning rivojlanishi shu sohaga oid leksik qatlamning shakllanishiga olib keldi. Quyida ana shunday terminlar bilan tanishib chiqamiz.

拖拉机 Tuōlājī–Traktor (inglizcha: Tractor, traktor, tortish mashinasi deb ham ataladi) — o'zi harakatlana olmaydigan boshqa jihozlarni tortib olish uchun

ishlatiladigan uskuna. Odatda, bu boshqa transport vositalari yoki jihozlarni tortib olish uchun ishlatiladigan transport vositasidir. Bu soʻz lotincha trahere, traho soʻzidan kelib chiqqan, xitoy tiliga ham ham fonetik, ham leksik usulda koʻchirilgan, 拖–tortmoq, 拉–tortmoq, 机–aparat degan maʼnolarni anglatadi, yaʼni tortuvchi aparat degani, bu soʻzning leksik jihatdan yasalişidir, 拖拉机 Tuōlājī aytilishi jihatidan ham traktor soʻziga oʻxshab talaffuz qilinadi, bu uning fonetik jihatdan yasalişidir.

1. 我要驾上拖拉机，开垦北国肥沃的土地。
2. 爸爸在黑土地上驾驶着拖拉机耕耘。
3. 这种拖拉机的用途很广，装上不同的农具，可以进行耕地、播种、除草、收割等。
4. 这小伙子很聪明，才学了点发动机的知识，就能举一反三，去修理汽车和拖拉机。

洒水车 Sǎshuǐ chē (inglizcha: sprinkler), shuningdek, suv tankeri, purkagich, koʻcha yuvish vositasi sifatida ham tanilgan, muhandislik vositalarining bir turi. Suv purkagichlar odatda yoʻllarni tozalash, oʻsimliklarni sugʻorish, shuningdek binolarni tozalash, yongʻindan himoya qilish va boshqa maqsadlarda qoʻllaniladi, ular tozalash, changni yuvish va sovutish funksiyalariga ega. Bu soʻz xitoy tiliga leksik usulda koʻchirilgan, 洒–purkamoq, 水–suv, 车–mashina degan maʼnolarni anglatadi, bu uning leksik jihatdan yasalişini hisoblanadi va suv purkovchi mashina sifatida qoʻllaniladi.

1. 清晨的阳光透过洒水车喷洒的水雾化成了一道道美丽的彩虹。
2. 不光县委大院干净整洁、装点一新,县前街上也是一尘不染,洒水车洒下的水渍在无力的阳光下散着寒气。
3. 两个月后,洒水车开进了施工坑道,坑道口也建起了医疗室,一台台铲运车、高速挖掘机也忙碌了起来¹.

石磨 Shí mò – Tosh tegirmon – guruch, bugʻdoy va loviya kabi donlarni kukun va pulpaga aylantirish uchun ishlatiladigan mashina. Odatda ikkita toshdan yasalgan. Tegirmon ikki qavatli tekislik boʻlib, ikkinchi qavat bilan tutashgan joy teksturaga ega boʻlib, don yuqori teshikdan ikki qavatning oʻrtasiga kirib, tekstura boʻylab tashqariga qarab harakatlanadi va ikki qatlam boʻylab dumalab oʻtganda maydalanadi va kukun hosil boʻladi. 石磨–xitoy tilida leksik usulda yasalgan boʻlib, 石–tosh, 磨–

¹中国农业机械化. – 北京: 北京出版社, 2001 年. - 74 页.

maydalash degan ma'noni anglatadi, ya'ni tosh maydalagich, tegirmonlar asosan toshdan qilingan, shu sababli bu so'z xitoy tilida shu usulda yasalgan.

1. 只要人手多，石磨挪过河。民谚
2. 拉磨的驴长年累月地绕着石磨转。
3. 刀刀再锋利，如若长时间不用石磨，一定会落满灰尘、锈迹斑斑，直至成废物的。这就是生活的真实。这就是生活的辩证法²。

撒化肥 Sā huàféi– o'g'itlantirish, o'g'itni dala yuzasiga teng ravishda tarqatish yoki yoyilgandan keyin ishlov berish usulini anglatadi, asosiy o'g'it sifatida ishlatiladigan azotli o'g'itlar yoki parchalangan organik o'g'itlar, azot yo'qotilishining oldini olish va azotli o'g'itlardan foydalanishni yaxshilash uchun qo'llash bilan birga haydash va tirmalashni anglatadi. Xitoy tilida bu so'z leksik usulda yasalgan, 撒–tarqatmoq, 化肥–o'g'it degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni o'g'itni tarqatish(o'g'itlantirish) shaklini keltirib chiqargan.

1. 撒化肥在农业领域中非常重要。
2. 作物播种后需要多次撒化肥。

耙子 Bāzi–grabel, **斧子** fǔzi – bolta, **锤子** chuǐzi – bolg'a, **锯子** jùzi – arra bular dehqonchilik asboblari hisoblanadi, yuqoridagi barcha so'zlar 子 suffiksi yordamida gramatik usulda yasalgan, lekin ular 子 suffiksisiz ham o'z ma'nosini yo'qotmaydi, 耙 – grabel, 斧–bolta, 锤–bolg'a, 锯– arra sifatida ham qo'llanaveradi, lekin xitoy tili paronim so'zlarga boy, shuning uchun yuqoridagi so'zlarga 子 suffiksini qo'shish so'zlarni talaffuzda aniqroq ifodalanishiga yordam beradi.

耙子:

1. 用耙子把叶子收在一起堆在汽车库旁边。
2. 有时候,我拿一个耙子想一个修正草坪的家伙。
3. 一名糟糕的园丁怪怨他的耙子。

斧子:

1. 这把斧子的主人，当他撒手给我的时候，说那是他的珍爱之物。
2. 他们中许多，只是妇女儿童，却拿起斧子，火把和草叉。
3. 实际上，切肉刀也是斧子的一种。

锤子:

1. 他用锤子正对着钉子敲下去。
2. 当我们开始做这些尝试的时候，大约在两年前，我仅仅只能分辨出锤子和节瓜。

²中国农业机械化.– 北京：北京出版社，2001 年. – 106 页.

3. 因此，大多数人实际上需要一把能够处理他们一生中可能碰到的所有敲敲打打的活的锤子。

4. 我刚开始使用的工具是简单的锤子、耙子等。

锯子：

1. 一个一直在锯树却从来不磨锯子。

2. 接着他从货车内取出一把锯子，在路边锯下一大块伐木³。

浇地 Jiāo dì-sug'orish, **翻地** fān dì-ag'darish, **平地** píngdì-tekislash-bular yerga ishlov berish usullari hisoblanadi. Bu so'zlarning barchasida 地-yer iyeroglifi qatnashgan, bunga sabab hammasi yer bilan bog'liq bo'lgan amallardir. 浇-sug'orish degan ma'noni anglatadi, bunga 地 iyeroglifi qo'shilib yerni sug'orish so'zini leksik usulda hosil qilyapdi, 翻 - ag'darmoq degan ma'noni anglatyapdi, bu so'zga ham 地 iyeroglifini qo'shish orqali aniq yerga ishlov berish usuli yerni ag'darishni tushunamiz, 平 - tekis, tekislamoq degan ma'nolarni anglatadi 地 iyeroglifi qo'shilishi natijaida yerni tekislash so'zi leksik usulda yasalgan.

1. 爸爸正从河里挑水浇地，他胳膊上的肌肉疙瘩绷得紧紧的。

2. 那时候，我们连喝的水都不够，更不用说用水浇地了。收藏反馈。

3. 河湖滩地减少主要是变为内陆水体，再是转变成水浇地。

4. 这片热土早已是天翻地。

5. 农夫已经推翻土地三天了。

6. 农民在种植前平整了地面⁴。

收割机 Shōu gē jī-kombayn (O'rim-yig'im mashinasi) Bu ekinlarni yig'ish uchun mo'ljallangan mashina. O'rim-yig'im va xirmon bir vaqtning o'zida tugatilib, donlar saqlash qutisiga to'planadi, so'ngra g'alla konveyer orqali transport vositasiga yetkaziladi. Uni qo'lda ham yig'ish mumkin, sholi kabi ekinlarning poyalarini ham yig'ib olish mumkin. Bu texnikahar xil o'rim-yig'im va xirmon asboblari asosida yaratilgan. Bu so'z leksik usulda yasalgandir. 收-qabul qilmoq, yig'moq, 割-kesmoq, 机-aparat degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kesib, ham yig'uvchi aparat ma'nosini anglatadi.

1. 这是一台拖拉机，那是一台联合收割机。

2. 具有巨大收割能力的现代联合收割机在田地里不遗漏多少大豆。

3. 农民驾着联合收割机收获小麦。

³中国农业合作简史。—北京：北京出版社，2009。—48 页。

⁴中国农业体系。—北京：2003 年。—90 页。

4. 联合收割机作业进一步发展，农业机械化技术的推广工作卓有成效

REFERENCES

1. Fan Ven Lan. Xitoyning yangi tarixi. – M.: 1972. – 321 b.
2. 中国农业体系. – 北京：北京出版社, 2003 年. – 210 页.
3. Mitter R. Modern China a very short introduction – Oxford: 2010. – 169 p.